

Tahorat olish odobi



14:03 / 30.10.2018 28768

Ey, farzand! Tahorat oladigan joy toza bo'lishi kerak. Bu xususda janob Payg'ambarimiz sallolohu alayhi vasallam shunday marhamat qiladilar:

«Tahorat ushatgan joyingizda tahorat olmangiz. Tahorat suvining har tomchisiga bir yillik namoz savobi beriladi».

U zot sallolohu alayhi vasallam yana bir hadisi shariflarida shunday marhamat qiladilar:

«Tahorat ushatgan yerda tahorat olgan kishi o'zini vasvasadan qutqarolmaydi».

Boshqa bir hadisi shariflarida esa shunday deydilar:

«Farishtalar tahorat olishini «**Bismilloh**» bilan boshlagan kishiga tahorat oxirigacha to'xtamasdan savob yozadilar».

Sahobalardan biri hazrat Payg'ambarimiz sallolohu alayhi vasallamdan tahorat foydasini so'radilar.

Rasululloh sallolohu alayhi vasallam shunday javob berdilar:

«Kimki tahoratni «**Bismilloh**» bilan boshlasa, qo'lini yuvar ekan, qo'li bilan qilgan, yuzini yuvayotganda yuzidagi a'zolari bilan orttirgan, qaysi a'zosini yuvsa

o'sha a'zosi bilan qilgan barcha gunohlari to'kilib, afv etiladi».

Ey, farzand! Rasululloh sallollohu alayhi vasallam shunday marhamat qiladilar:

«Uylaringizni butxonaga aylantirmangiz. Ularni namozlaringiz bilan bezang (ziynatlang)izlar».

Bir hadisi shariflarida ham shunday marhamat etadilar:

«Mening masjidimda o'qilgan ikki rakat namoz boshqa joylarda o'qilgan ming rakat namozdan xayrli (afzal, yaxshi)roqdir».

Boshqa bir hadisi shariflarida shunday xushxabar beradilar:

«Kim bomdod namozining sunnatini uyida o'qib, farzini jomega borib, jamoat bilan ado etsa, mening masjidimda o'qilgan namozning savobiga noil bo'ladi».

Oyisha onamizdan (roziyallohu anhu) rivoyat etilgan bir hadisi sharifda shunday deyiladi:

«Rasululloh sallollohu alayhi vasallam rukuga egilganlarida ustlarining har qanday bir joyiga suv to'la idish qo'yilsa, ichidagi suv to'kilmagani kabi idish ham har qanday tarafga tushib suvi to'kilmas darajada to'g'ri, tekis, tartib-intizom bilan turardilar». Namozni Payg'ambarimiz sallollohu alayhi vasallam o'qigan shaklda o'qimoq zarur. Ruku, sajda va boshqa harakatlarni U zotdek ado etish namoz qabul bo'lishi uchun shartdir.